Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 004.8

RAQAMLI JAMIYAT SHAROITIDA INKLYUZIV YONDASHUVNING XORIJIY VA MILLIY TAJRIBA ASOSIDA ADAPTIV INTEGRATSIYASI: INKLYUZIV JAMIYAT MODELI

Ahadjon Abdullajonovich Salmonov*
Farg‘ona davlat universiteti Falsafa kafedrasi o‘qituvchisi
✉ salmonovahad@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada inklyuziv jamiyatni shakllantirish zamonaviy ijtimoiy siyosatning ko‘p o‘lchovli yo‘nalishi sifatida tahlil qilinadi. Inklyuziyani faqat ijtimoiy himoya yoki inklyuziv ta’lim doirasida emas, balki ta’lim, bandlik, raqamli xizmatlar, mahalliy boshqaruv va ijtimoiy himoya institutlarining o‘zaro bog‘langan tizimi sifatida tahlil qilinadi. Adabiyotlar tahlilida inklyuziv ta’lim, pedagogik amaliyotlar, sun’iy intellekt ta’siri, mehnat bozorida ish beruvchilarning qarorlari hamda raqamli inklyuziyada esa foydalanish imkoniyati va raqamli tafovut masalalari keng o‘rganildi. O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy himoya, mahalla, inklyuziv ta’lim va raqamli davlat xizmatlarining transformatsiyasi xorijiy tajribani mexanik tarzda tadbiq etmaslik va mahalliy institutsional sharoitlarga moslashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Maqolada adaptiv siyosat transferining konseptual ahamiyati asoslandi va inklyuziv siyosatni sektorlararo institutsional hamkorlik asosida rivojlantirish yo‘nalishlari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar

inklyuziv jamiyat, ijtimoiy himoya, inklyuziv ta’lim, raqamli inklyuziya, raqamli xizmatlar, sun’iy intellekt, mehnat bozori, siyosat transferi, integratsiya, institutsional moslashuv.

DOI: 10.5281/zenodo.23279536

KIRISH

Inklyuziv jamiyatni zamonaviy ijtimoiy siyosatning faqat himoya yoki kompensatsiya choralariga asoslangan modeli sifatida talqin qilish yetarli emas, u har bir insonning jamiyat hayotida real va teng ishtirok etishini, institutsional, ijtimoiy va iqtisodiy to‘siqlardan xoli bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan ko‘p o‘lchovli tizimni anglatadi. Mavjud ilmiy adabiyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’limga bag‘ishlangan tadqiqotlarda asosan o‘qituvchilar munosabati va pedagogik amaliyotlarga e’tibor qaratilgan [10; 11; 21], mehnat bozori tadqiqotlarida ish beruvchilarning qaror qabul qilish mexanizmlari va bandlik kvotalari tahlil qilingan [26], raqamli inklyuziyaga oid ishlarda esa foydalanish imkoniyati va raqamli tafovut masalalari o‘rganilgan [8; 12; 13]. Bunda alohida ta’kidlash lozimki, mazkur yo‘nalishlardagi tadqiqotlar metodologik jihatdan ham heterogen: ular asosan tizimli sharh yoki tavsifiy-kontseptual formatda bo‘lib, ko‘proq yuqori daromadli mamlakatlar tajribasini umumlashtiradi, bu esa xulosalarni institutsional sharoiti farqli mamlakatlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tatbiq etish imkoniyatini cheklaydi. Bu yo‘nalishlarni yagona institutsional transfer modeli doirasida bog‘lash masalasi esa ilmiy adabiyotda yetarlicha tizimli ishlab chiqilmagan. O‘zbekiston sharoitida masalaning dolzarbligi mamlakatda ijtimoiy himoya tizimi, mahalla instituti, inklyuziv ta’lim va raqamli davlat xizmatlarining bir vaqtning o‘zida transformatsiya jarayonida ekani bilan izohlanadi; bunday sharoitda xorijiy tajribani mexanik tarzda joriy etish institutsional nomuvofiqlik xavfini oshirishi mumkin. Shu sababli tadqiqotning maqsadi — xorijiy tajribani “eng yaxshi model” sifatida emas, balki muayyan institutsional mexanizmlarning O‘zbekiston sharoitida transfer qilinuvchanligini aniqlaydigan adaptiv integratsiya modelini nazariy jihatdan asoslashdan iborat.

Materiallar va usullar

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, institutsional tahlil, qiyosiy tahlil va ijtimoiy-falsafiy tahlil tashkil etadi. Tadqiqot obyekti sifatida inklyuziv jamiyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy siyosat institutlari — ijtimoiy himoya, ta’lim, bandlik, raqamli davlat xizmatlari va mahalliy boshqaruv mexanizmlari belgilab olindi. Tahlil uchun 20 dan ortiq xorijiy va milliy manba, shu jumladan xalqaro tashkilotlar (BMTTD, XMT, JSST) hisobotlari hamda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlari [23; 24; 25] jalb etildi. Tadqiqot ikki vazifani birlashtiradi: inklyuzivlik bo‘yicha alohida ilmiy oqimlardan umumiy mexanizmlarni ajratish va ushbu mexanizmlarni mamlakatlararo institutsional kontekst bilan bog‘lash. Tahlilning maqsadi sabab-oqibatni statistik isbotlash emas, balki mavjud dalillar asosida adaptiv integratsiyaning nazariy va institutsional shartlarini aniqlashdir.

Natijalar va muhokama

Tahlil natijalari inklyuziv jamiyatni shakllantirishni kamida to‘rtta o‘zaro bog‘liq institutsional yo‘nalish doirasida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi: ta’lim (inklyuziv ta’limning bandlik va raqamli imkoniyatlar bilan uzviy bog‘lanishi), mehnat bozori (ish beruvchi munosabati, ish joyini moslashtirish va bandlik siyosati mexanizmlari) [26], raqamli inklyuziya (texnologik mavjudlik bilan bir qatorda foydalanish qulayligi va raqamli savodxonlik) [8; 12; 13] va mahalliy institutlar (mahalla — ehtiyojni aniqlash, jamoatchilik ishtiroki va xizmatlar koordinatsiyasi vositasi sifatida). Ushbu to‘rt yo‘nalishni birgalikda ko‘rib chiqish ular o‘rtasida muayyan murosalar (trade-off) mavjudligini ham ko‘rsatadi: masalan, ta’limdagi inklyuziyaning kengayishi bandlik tizimidagi moslashuvchan mexanizmlar bilan qo‘llab-quvvatlanmasa, “ta’lim–bandlik uzilishi” holatini keltirib chiqarishi mumkin, bu esa qishloq joylarda nogironligi bo‘lgan shaxslarning atigi 5,8 foizigina bandligi haqidagi ma’lumotlarda ham o‘z aksini topgan [6]. Shu sababli to‘rt yo‘nalishni alohida-alohida takomillashtirish yetarli emas, ular o‘rtasidagi institutsional “ko‘prik” mexanizmlari alohida e’tiborni talab qiladi.

Xorijiy tajribani tayyor shaklda ko‘chirishdan ko‘ra, uning qanday muammoni hal qilgani va qabul qiluvchi muhitda qaysi elementlari moslashtirilishi zarurligini aniqlash muhim. Shu asosda O‘zbekiston uchun besh bosqichli adaptiv institutsional transfer modeli taklif etiladi: (1) mahalliy muammo va institutsional to‘siqlarni aniqlash; (2) xorijiy tajribadagi funksional mexanizmlarni ajratib olish; (3) ularning huquqiy, ma’muriy va ijtimoiy sharoitlarga mosligini baholash; (4) kichik miqyosdagi pilot sinov; (5) natijalarga asoslangan institutsional kengaytirish. Qiyosiy tahlil “qaysi mamlakat tajribasi eng yaxshi?” emas, “qaysi mexanizm transfer qilinishi mumkin?” degan savolga javob beradi (1-jadval).

Mamlakat	Ustuvor mexanizm	O‘zbekiston uchun transfer nuqtai nazaridan
Finlandiya	Erta qo‘llab-quvvatlash	O‘rta-yuqori
Kanada	Jamiyatga asoslangan tabaqalashtirish	O‘rta
Yaponiya	Universal dizayn va oqilona moslashtirish	Yuqori
Germaniya	Idoralararo muvofiqlashtirish	O‘rta-yuqori
Xitoy	Ijtimoiy-iqtisodiy siyosat bilan bog‘lash	O‘rta

1-jadval. Mamlakatlar bo‘yicha ustuvor mexanizmlar va O‘zbekiston uchun transfer salohiyati.

Finlandiyadan erta qo‘llab-quvvatlash, Kanadadan jamiyatga asoslangan tabaqalashtirish, Yaponiyadan universal dizayn, Germaniyadan idoralararo muvofiqlashtirish, Xitoydan esa ijtimoiy-iqtisodiy siyosat bilan bog‘lash mexanizmlari o‘rganilishi mumkin, biroq ularning hech biri to‘liq ko‘chirilmasligi kerak. O‘zbekiston uchun taklif etilayotgan model yangi parallel institut yaratishdan ko‘ra mavjud institutlar — mahalla, ijtimoiy xizmatlar, ta’lim, bandlik tizimi va raqamli davlat xizmatlari — o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytirishga asoslanadi.

Alohida ta’kidlash lozimki, sun’iy intellekt texnologiyalari raqamli inklyuziya yo‘nalishida muhim salohiyatga ega: nutqni matnga aylantirish, moslashuvchan ta’lim vositalari va assistiv texnologiyalar nogironligi bo‘lgan shaxslarning resurslardan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi [1; 5; 6], biroq bunda shaxsiy ma’lumotlar himoyasi, algoritmik tarafkashlik va raqamli tengsizlik xavflari institutsional nazoratni talab qiladi [2]. Tadqiqot birlamchi empirik ma’lumotlarga emas, konseptual-institutsional tahlilga asoslangani uchun taklif etilgan modelning amaliy samaradorligi kelgusida pilot loyihalar orqali empirik tekshirishni talab qiladi.

Qiyosiy tahlilning asosiy jihati “mamlakat modeli” emas, mexanizm hisoblanadi. Masalan, Finlandiya modelini to‘liq ko‘chirish o‘rniga erta qo‘llab-quvvatlash mexanizmi; Yaponiyani to‘liq ko‘chirish o‘rniga universal dizayn va oqilona moslashtirish; Germaniyani to‘liq ko‘chirish o‘rniga idoralararo muvofiqlashtirish; Kanadani to‘liq ko‘chirish o‘rniga jamiyat darajasidagi farqlanish; Xitoyni to‘liq ko‘chirish o‘rniga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni inklyuzivlashtirish bilan bog‘lash mexanizmi tahlil qilinadi.

Finlandiya: Finlandiya tajribasining transfer qilinadigan elementi muayyan tashkilot emas, ehtiyojni erta aniqlash va supportni umumiy tizim ichida tashkil etish tamoyilidir. Ushbu mexanizm O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim, umumiy ta’lim va ijtimoiy xizmatlar o‘rtasidagi zanjirini kuchaytirish orqali moslashtirilishi mumkin. Biroq, Finlandiya davlatining ijtimoiy ta’minot imkoniyatlari bilan O‘zbekiston institutsional resurslari o‘rtasidagi farq sababli universalizmning to‘liq fiskal arxitekturasini ko‘chirish mantiqan asoslanmagan.

Kanada: Kanada tajribasi mahalliy darajadagi xizmatlarni ehtiyojga qarab differensiallashtirishning muhimligini ko‘rsatadi. Federal va provinsiya darajasidagi boshqaruv tuzilmasini O‘zbekistonga ko‘chirish mumkin emas, biroq xizmatni lokal ehtiyojga moslashtirish va jamiyat ishtiroki mexanizmlarini mahalla orqali institutsionalizatsiya qilish mumkin.

Yaponiya: Yaponiya tajribasida disability inclusion huquqiy kafolat va universal design bilan bog‘lanadi. O‘zbekiston uchun eng yuqori transfer salohiyatiga ega mexanizmlardan biri raqamli va jismoniy qulaylikni alohida “maxsus xizmat” emas, barcha yangi davlat xizmatlarining dizayn talabi sifatida ko‘rishdir. Bunda yordamchi texnologiya, foydalanish uchun qulay jamoatchilik axboroti va oqilona moslashtirish bir tizim sifatida baholanishi kerak.

Germaniya: Germaniya tajribasi bir shaxsning ta’lim, mehnat, sog‘liq va ijtimoiy xizmat ehtiyojlarini alohida idoralar kesimida emas, koordinatsiyalangan qo‘llab-quvvatlash tizimi orqali ko‘rishning afzalligini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda bu yondashuv holatni boshqarish va yo‘naltirish mexanizmlarini kuchaytirish orqali moslashtirilishi mumkin.

Xitoy: Xitoy tajribasi inklyuziyani faqat ijtimoiy transferlar bilan cheklamasdan, kambag‘allikni kamaytirish, bandlik va iqtisodiy imkoniyatlar bilan bog‘lash mumkinligini ko‘rsatadi. Biroq siyosiy boshqaruv modeli va institutsional tuzilma O‘zbekistonga to‘liq ko‘chirilmaydi. Transfer qilinadigan jihat iqtisodiy ishtirok orqali inklyuziya bilan bog‘laydigan siyosiy mantiqdir.

Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti (WHO)ning so‘nggi ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘ylab taxminan 1,3 milliard kishi qandaydir nogironlik bilan yashamoqda. SIdan foydalanish orqali nogironlar inklyuziyasi bilan bog‘liq muammolarni hal qilishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan to‘siqlarni o‘rganish va alohida e’tibor berilishi lozim bo‘lgan yo‘nalishlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Eng muhim savol shundaki, jamiyat SIdan inklyuziv iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarni yaratish uchun qanday foydalanadi? Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT)ning e’tirof etishicha, nogironligi bo‘lgan insonlar mehnatga jalb etilishining pastligi, kasbiy ta’lim olish imkoniyatining deyarli yo‘qligi, ishga qabul qilish va martaba yuksalishi borasida bir qator noxolisliklarga duch kelishlari keng tarqalgan. BMT Taraqqiyot dasturining yaqinda e’lon qilingan hisoboti shuni ko‘rsatdiki, qishloq joylarda yashovchi nogironligi bo‘lgan shaxslarning atigi 5,8 foizi ish bilan ta’minlangan. Ushbu muammolar azaliy cheklovlar bilan emas, balki murakkab ijtimoiy, huquqiy va iqtisodiy tamoyillar bilan chambarchas bog‘liqdir [6].

Imkoniyati cheklangan shaxslar xususiy sektorlarda, ta’lim, sog‘liqni saqlash sohasida ham bir qator to‘siqlarga duch kelmoqda, masalan, maktab infratuzilmasining yetarli darajada emasligi va ularning ehtiyojlariga javob bermaydigan o‘quv materiallari va shu kabilardir. Oliy ta’limda ham ular mavjud noqulay binolar va nogironlar talablariga javob beradigan o‘quv sharoitlari yo‘qligi kabi muammolarga duch kelmoqda. Xuddi shunday noqulay infratuzilma, oqilona moslashtirishlar taklif qilishni istamaslik va nogironlar inklyuziyasiga salbiy ta’sir qiladigan nomutanosib tarafkashlik kabi to‘siqlar sog‘liqni saqlash tizimi va mehnat bozorida ham mavjud bo‘lib, oxir-oqibat bu muammolar nogironligi bo‘lgan insonlar imkoniyatlarini cheklanishiga olib kelmoqda. BMTning O‘zbekistondagi vakolatxonasi bu muammolar yuzasidan SI texnologiyalari nogironlarga yordam berishda bir qator ijobiy natijalarni tahlil qilmoqda. Dunyo bo‘ylab kamida bitta qulog‘ida eshitish zaifligi bo‘lgan 1,5 milliarddan ortiq insonlar uchun SI qurilmalari nutqni matnga o‘girib berish, tovushlarni aniqlash va turli tovushlarni ajratish uchun dasturlardan foydalanish kabi xizmatlarni taklif etmoqda. Ko‘zi ojiz bo‘lgan 43 million, o‘rta va og‘ir darajada ko‘rish qobiliyati zaif bo‘lgan 295 million va ko‘rish qobiliyati engil darajada zaif bo‘lgan 258 million insonlar uchun SI yuz ifodalari va imo-ishoralarni ifodalab berish, shuningdek tasvirlar, atrof-muhit va masofani aniqroq tasvirlab berish orqali insonlar o‘rtasida o‘zaro muloqot sifatini oshirishda katta hissa qo‘shmoqda. Texnologiyaning ushbu yutuqlari izolyatsiya tuyg‘usini kamaytirishga, inson qobiliyatlarini takomillashtirish va mustaqil bo‘lishni rag‘batlantirishga ko‘maklashadi, albatta. Dunyo aholisining taxminan 1 foizi, ya’ni 75 milliondan ortiq odam, hozirda autizm spektri buzilishi tashxisiga ega, bu neyroxilma-xillikning bir qismi sifatida tan olingan tez rivojlanayotgan muammo bo‘lib hisoblanadi. Autizmi bor insonlarning 85 foizi ishsizligi sababli, SI yangi ish imkoniyatlarini yaratishda katta hissa qo‘shishi mumkin. 2004-yilda tashkil etilgan Specialisterni xalqaro tashkiloti kadrlar qobiliyatlarini hisobga olgan va texnologiya salohiyatiga e’tibor qaratgan holda korxonalarga neyroxilma-xilligi

bo‘lgan insonlarga mos keladigan ish joylari topishda yordam berib kelmoqda. Xuddi shunday, Mentra startapi SI yordamida neyroxilma-xilligi bo‘lgan insonlarni asosan dasturshunoslik bilan bog‘liq sohalarda ish bilan ta’minlashda faoliyat ko‘rsatmoqda. Shuningdek, assistiv texnologiyalarni yaxshilash uchun SIdan foydalanayotgan Limbitless Solutions kompaniyasi bolalar uchun 3D bionik qo‘llar kabi protez moslamalari yaratishni takomillashtirmoqda [6].

Tadqiqotlarga ko‘ra, raqamlashtirish natijasida barcha sohalardagi ish o‘rinlarining sezilarli darajada qisqarishi hammamizga ma’lum [1,2,3,6,7,8]. SI barcha sohalarda xodimlarni ishga yollashda qo‘llanilish holatlari asta-sekin ortmoqda. SI davrida nogironlar inklyuziyasi va xavfsizligini ta’minlash, jamoat tarafkashliklarini bartaraf etish va keng qamrovli axloqiy va me’yoriy yo‘riqnomalarni amalga tatbiq etish nihoyatda katta ahamiyatga ega. Nogironligi bo‘lgan insonlarga SIning, ayniqsa, dasturda o‘rganishga asoslangan SIning ta’siri juda katta. SI to‘siqlarni bartaraf etish va inklyuzivlikni rag‘batlantirish borasida katta imkoniyatlarga ega, ammo jarayonda nogironligi bo‘lgan insonlar uchun qo‘shimcha to‘siqlar yaratish xavfi ham e’tibordan xoli emas. SI jadal rivojlanayotgan bir paytda, inklyuzivlik va barcha uchun qulay muhitni yaratish borasida SIning afzalliklarini kengaytirish va yuzaga kelishi mavjud bo‘lgan xavflarni kamaytirish maqsadida turli SI yechimlarni ishlab chiqishda nogironligi bo‘lgan insonlarning faol ishtiroki juda muhim. 2026-yil noyabr oyida Buyuk Britaniyaning London shahrida bo‘lib o‘tadigan “EdTech World Forum 2026” (Ta’limda sun’iy intellekt konferensiyasi) doirasidagi tadbirda elektron ta’lim platformalari, katta til modellari (LLM), virtual sinfxonalar, elektron ta’lim, o‘yinlashtirish (gamifikatsiya), ta’lim texnologiyalari hamda VR va AR kabi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratilishi masalaning xalqaro ahamiyatga molik jihatlarini ko‘rsatmoqda [7]. Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimida o‘qitish va o‘rganish jarayonlarini tashkil etishning yangi imkoniyatlarini yuzaga keltirmoqda. SI vositalari o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash, ta’lim natijalarini tahlil qilish, tezkor fikr-mulohaza berish hamda o‘qituvchilarning ayrim ma’muriy vazifalarini avtomatlashtirishda qo‘llanilishi mumkin [1]. Biroq sun’iy intellektni ta’limga joriy etish faqat texnologik samaradorlik masalasi emas. Uning qo‘llanilishi ta’lim sifati, tenglik, inklyuzivlik, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, algoritmik tarafkashlik, akademik halollik va inson nazorati kabi masalalarni ham qamrab oladi [2]. Shu sababli SI ta’lim tizimida o‘qituvchining o‘rnini to‘liq egallovchi vosita sifatida emas, balki o‘qituvchi faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi va o‘quvchining individual ta’lim ehtiyojlariga moslashuvchi texnologik vosita sifatida ko‘rib chiqilishi maqsadga muvofiq.

Ta’limda SI foydalanishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri shaxsiylashtirilgan ta’limni rivojlantirishdir. An’anaviy sinf sharoitida o‘qituvchining barcha o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini bir xil darajada hisobga olishi murakkab. SI asosidagi adaptiv ta’lim tizimlari esa o‘quvchining bilim darajasi, o‘zlashtirish sur’ati va xatolarini tahlil qilib, unga mos topshiriq va o‘quv materiallarini tavsiya qilishi mumkin [3]. Bunday yondashuv o‘quv jarayonini differensiallashtirish imkoniyatini kengaytiradi. Birinchi yo‘nalish — intellektual repetitorlik va maslahat berish tizimlaridir. Sun’iy intellektga asoslangan repetitorlar o‘quvchining savollariga javob berishi, tushunmagan mavzularini qayta izohlashi va qo‘shimcha mashqlar tavsiya qilishi mumkin. Bunda SI o‘qituvchining pedagogik faoliyatini to‘liq almashtirmaydi, balki o‘quvchi bilan individual ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi [4]. Ikkinchi yo‘nalish — baholash va fikr-mulohaza berish jarayonlarini takomillashtirish. SI vositalari test natijalarini tezkor qayta ishlash, o‘quvchilarning xatolarini aniqlash va ayrim topshiriqlar bo‘yicha dastlabki tahliliy fikr-mulohazalarni shakllantirishda qo‘llanishi mumkin. Natijada o‘qituvchi o‘quvchilarning qaysi mavzularda qiyinchilikka duch kelayotganini tezroq aniqlab, dars mazmunini moslashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi [1]. Uchinchi yo‘nalish — ta’lim jarayonini boshqarish va raqamli boshqaruv jarayonida SI o‘quvchilar faoliyatini tahlil qilish, jadval va rejalashtirish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash, ta’lim ma’lumotlarini qayta ishlash hamda ta’lim muassasasining ayrim boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishda foydalanilishi mumkin. Bu o‘qituvchilarning texnik va takroriy vazifalarga sarflaydigan vaqtini qisqartirib, pedagogik faoliyatga ko‘proq e’tibor qaratish imkonini yaratadi.

Sun’iy intellekt va ta’lim inklyuzivligi. SI texnologiyalarining muhim jihatlaridan biri ularning *inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlash salohiyati* bilan bog‘liq. Xususan, nutqni matnga aylantirish, matnni ovozli shaklda o‘qish, avtomatik tarjima va boshqa yordamchi texnologiyalar nogironligi bo‘lgan yoki ta’lim jarayonida qo‘shimcha ehtiyojlarga ega o‘quvchilarning ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin [5]. Bunday texnologiyalar ko‘rish, eshitish, nutq yoki yozish bilan bog‘liq ayrim cheklovlarga ega o‘quvchilarga ta’lim materiallaridan foydalanishda qo‘shimcha imkoniyat yaratadi. Shuningdek, turli tillarda ta’lim oluvchi o‘quvchilar uchun avtomatik tarjima va tilni qo‘llab-quvvatlash vositalari ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirishi mumkin. Shu bilan birga, texnologiyaning mavjudligi o‘z-o‘zidan inklyuzivlikni ta’minlamaydi. Raqamli qurilmalar, internet, sifatli ta’lim resurslari va SI vositalaridan foydalanish imkoniyatlaridagi tafovut mavjud bo‘lsa, texnologik innovatsiyalar ayrim guruhlar uchun yangi tengsizliklarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Shuning uchun SI asosidagi ta’lim siyosatida *raqamli tenglik va universal foydalanish imkoniyati* alohida e’tiborga olinishi lozim [5].

Sun’iy intellektdan foydalanishning axloqiy muammolari. Ta’limda SI foydalanish bilan bog‘liq eng muhim masalalardan biri *shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish*dir. SI tizimlari o‘quvchilarning o‘quv faoliyati, natijalari, xatti-harakati va boshqa ma’lumotlarini qayta ishlashi mumkin. Shu sababli bunday ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash va ulardan foydalanish aniq qoidalar va xavfsizlik mexanizmlari asosida amalga oshirilishi zarur [2]. Birinchi masala — *algoritmik tarafkashlik*. SI tizimining natijasi uni o‘qitishda foydalanilgan ma’lumotlarning sifati va tarkibiga bog‘liq. Agar ma’lumotlarda ijtimoiy yoki guruhiy tarafkashlik mavjud bo‘lsa, algoritm ham bunday tarafkashlikni takrorlashi mumkin. Shu sababli ta’limda qo‘llaniladigan SI tizimlari muntazam tekshirilishi, ularning qarorlariga inson tomonidan nazorat o‘rnatilishi va kamsitishga olib keluvchi natijalarning oldini olish mexanizmlari ishlab chiqilishi kerak. Ikkinchi masala — *akademik halollik*. Generativ SI vositalari matn, javob va boshqa o‘quv materiallarini yaratishi mumkinligi sababli talabaning mustaqil bajargan ishi bilan SI yordamida yaratilgan mahsulotni farqlash masalasi dolzarb bo‘lib bormoqda. Shu sababli ta’lim muassasalari SI vositalaridan foydalanishning maqbul chegaralarini belgilashi va baholash mezonlarini yangi texnologik sharoitga moslashtirishi zarur [2].

Ta’limda sun’iy intellektdan foydalanishning asosiy shartlari. Ta’lim tizimida SI texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun uchta asosiy tamoyil muhim hisoblanadi. Birinchidan, *inson markaziyligi* saqlanishi kerak: yakuniy pedagogik va muhim ta’limiy qarorlar inson nazorati ostida qolishi lozim. Ikkinchidan, *inklyuzivlik va tenglik* ta’minlanishi, ya’ni SI texnologiyalaridan foydalanish imkoniyati turli ijtimoiy guruhlar uchun mavjud bo‘lishi kerak. Uchinchidan, *shaffoflik va mas’uliyat* tamoyillari asosida ma’lumotlardan foydalanish, algoritmlarning ishlash chegaralari va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlar aniq belgilanishi lozim [2]. Shuningdek, o‘qituvchilarning SI vositalaridan foydalanish bo‘yicha raqamli va metodik kompetensiyalarini rivojlantirish ham muhimdir. Chunki texnologiyaning o‘zi ta’lim sifatini avtomatik ravishda oshirmaydi, uning natijasi texnologiyaning pedagogik maqsadga qanchalik to‘g‘ri integratsiya qilinishiga bog‘liq. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligi bo‘yicha ish beruvchi darajasidagi mexanizmlarni dolzarb vazifa sifatida ko‘rilmoqda. Ish beruvchi xususiyatlari ishda qolish va qayta ishlash jarayonlariga ta’sir qilishini ko‘rsatadi. 2024-yilgi sharhda kamsitishga qarshi qonunchilikning o‘zi bandlikni oshirishga yetarli bo‘lmasligi, kvotalar va ish haqi bo‘yicha subsidiyalar bo‘yicha dalillar aralash ekanligi, ishga bosqichma-bosqich qaytish va moslashuvchan mehnat mexanizmlari esa barqarorroq natijalar berishi qayd etish lozim [26]. Olimlar hukumat nogironlarni baholash va ijtimoiy himoya qilishning mavjud institutsional va siyosiy asoslarini tubdan isloh qilishi va nogironlarning mehnat bozoriga kirishini ta'minlashi lozimligini taklif qiladi. Bunga nogironlarni qarorlar qabul qilish jarayonlariga mazmunli jalb qilish va barcha mavjud to‘siqlarni bartaraf etish uchun ularning vakilllik tashkilotlari bilan hamkorlik qilish orqali erishish mumkin [26, B.10]. Bu masala O‘zbekistonda inklyuziv bandlikni faqat kvota yoki huquqiy taqiq orqali o‘lchash noto‘g‘ri. Ish joyini moslashtirish, kasbiy tayyorgarlik, ish beruvchi rag‘batlari, individual qo‘llab-quvvatlash va xizmatlar koordinatsiyasi birgalikda ko‘rilishi kerak.

Raqamli xizmatlarning kengayishi inklyuziyani avtomatik ravishda ta’minlamaydi. Raqamli tafovut omillarini demografik, iqtisodiy, shaxsiy, ijtimoiy, texnologik, trening, huquqiy va infratuzilmaviy guruhlarga ajratiladi [12]. Raqamli texnologiyalar nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ijtimoiy inklyuziyani kuchaytirishi mumkinligini, biroq foydalanish imkoniyati muammolari saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi [13]. 2026-yilgi keng qamrovli sharh esa 1997–2024 yillardagi 410 ishni tahlili, raqamli qulaylik bo‘yicha tadqiqotlarga ko‘ra ko‘proq texnik va baholash yo‘nalishida jamlanganini, ijtimoiy-madaniy va siyosiy o‘lchovlar esa nisbatan kamroq integratsiyalanganini ko‘rsatadi [8]. 2026-yilda inklyuziv jamiyat reabilitatsiyasi bo‘yicha tizimli tahlilga ko‘ra faol ishtirok, imkoniyatlarni kengaytirish, ijtimoiy integratsiya va xizmatlardan foydalanish imkoniyati mavjudligini izohlash mumkin. O‘zbekistonda mahalla bu mexanizmlarni lokal koordinatsiya platformasi sifatida bog‘lash imkonini beradi. Biroq mahallaga barcha professional xizmatlarni yuklash institutsional rol chalkashligiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun maqolada mahalla “xizmat ko‘rsatuvchi” emas, balki ehtiyojni aniqlash, jamoatchilik ishtiroki va xizmatlar o‘rtasidagi koordinatsiya sifatida konseptual asos yoritib berishga xarakat qilindi (2-jadval).

№	Mezon/yo‘nalish	Tahliliy indikatorlar
1	Huquqiy	Huquqiy kafolatlar, koordinatsiya, javobgarlik
2	Ta’lim	Erta aniqlash, umumiy muhit, o‘qituvchi tayyorgarligi, individual yordam
3	Bandlik	Ish beruvchi rag‘batlari, turar joy, kasbiy tayyorgarlik, ishga qaytish
4	Ijtimoiy xizmatlar	Qo‘llab-quvvatlash, yo‘llanma, ko‘p tarmoqli xizmat
5	Raqamli inklyuziya	Universal dizayn, qulaylik (foydalanish imkoniyati), yordamchi texnologiyalar, raqamli ko‘nikmalar

6	Jamoatchilikda faollik	Jamiyat hayotida ishtirok etish, o‘z manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy munosabatlar

2-jadval. Indikatorlar bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar qiyosiy tahlili.

Maqolaning asosiy ilmiy hissasi shuki, xalqaro inklyuziya mexanizmlarini milliy sharoitga ko‘chirishni besh bosqichli adaptiv transfer orqali tushuntiruvchi modelidir. Model transferdagi moslashuvni ijtimoiy qamrab olishdagi ko‘p qirralilik, imkoniyat bilan birlashtiradi (3-jadval).

Asosiy jihat	**Asosiy savol**	**Baholash**
1. Huquqiy moslik	Mexanizm milliy qonunchilik va inson huquqlari majburiyatlariga zid emasmi?	Mos / Qisman / Mos emas
2. Institutsional sig‘im	Mavjud tashkilotlar mexanizmni amalga oshira oladimi?	Yuqori / O‘rta / Past
3. Fiskal-ma’muriy feasibility	Moliyalashtirish, kadr va boshqaruv xarajatlari ko‘tariladimi?	Barqaror / Shartli / Zaif
4. Ijtimoiy-madaniy moslik	Mexanizm mahalliy ijtimoiy institutlar va xulq-atvor bilan moslashadimi?	Yuqori / O‘rta / Past
5. Sinov tariqasidagi dalillar	Kichik hudud yoki guruhda natijani o‘lchab, keyin ko‘lamini kengaytirish qilish mumkinmi?	Ha / Qisman / Yo‘q

3-jadval. Xalqaro inklyuziya mexanizmlarini milliy sharoitga ko‘chirishni besh bosqichli adaptiv transfer.

O‘lchov	**Mexanizm**	**Natija zanjiri**
Huquqiy-institutsional	Huquqiy kafolat, koordinatsiya	Huquq → xizmat → natija
Ta’lim	Erta aniqlash, inklyuziv ta’lim	Qamrov → ishtirok → natija
Bandlik	Turar joy, ish beruvchi tomonidan taqdim etiladigan imtiyozlar	Ishga kirish → ishda qolish
Ijtimoiy xizmatlar	Holatni boshqarish, hamjamiyat doirasida yo‘naltirish	Ehtiyoj → xizmat
Raqamli inklyuziya	Universal dizayn, qulaylik	Kirish → foydalanish → mustaqillik
Fuqarolik ishtiroki	Jamiyat hayotida ishtirok etish, o‘z manfaatlarini himoya qilish	Ishtirok etish → faollik → dahldorlik

4-jadval. Konseptual modelning olti o‘lchovi

O‘zbekiston uchun taklif etilayotgan model yangi parallel institut yaratishdan ko‘ra mavjud institutlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytirishga asoslanadi. Mahalla davlat ijtimoiy xizmatlari professional xizmat ko‘rsatuvchi, ta’lim muassasalari Inklyuziv ta’lim muhiti, bandlik tizimi ish joyini o‘zgartirish va moslashtirish, raqamli davlat xizmatlari esa universal foydalanish imkoniyat sifatida ishlashi mumkin.

Qiyosiy natijalar “qaysi mamlakat tajribasi eng yaxshi?” degan savolga javob bermaydi. Aksincha, turli ijtimoiy ta’minot va boshqaruv tizimlari bir xil normativ maqsadga turli mexanizmlar orqali erishishini ko‘rsatadi. Transfer muvaffaqiyati yangi institutsional muhitga qanday tadbiq qilinishiga bog‘liq. Muhim xulosa shuki, inklyuzivlik siyosatini amalga oshirish salohiyati natijaning mustaqil determinantidir. O‘zbekiston uchun alohida ahamiyatga ega mahalla institutini xalqaro modelning o‘rniga qo‘yish emas, balki xalqaro mexanizmlarni mahalliy koordinatsiya arxitekturasiga tadbiq qilish zarur.

Ushbu tadqiqot bir qator metodologik cheklovlarga ega bo‘lib, ularni aniq belgilash natijalarning ilmiy asoslanganligini oshiradi. Birinchidan, tadqiqot birlamchi empirik ma’lumotlarga emas, balki mavjud ilmiy adabiyot, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va me’yoriy-huquqiy hujjatlarning kontseptual-institutsional tahliliga asoslanadi. Shu sababli taklif etilgan besh bosqichli adaptiv transfer modeli hozircha nazariy konstruksiya bo‘lib qolmoqda va uning amaliy samaradorligi O‘zbekiston sharoitida pilot loyihalar orqali empirik tekshirishni talab qiladi. Ikkinchidan, qiyosiy tahlil uchun tanlangan beshta mamlakat — Finlandiya, Kanada, Yaponiya, Germaniya va Xitoy — tizimli tanlov mezonlari asosida emas, balki ularning inklyuziv siyosat sohasidagi tan olingan tajribasi asosida maqsadli tanlangan, bu esa tanlov xolisligiga oid savollarni tug‘dirishi mumkin. Uchinchidan, foydalanilgan adabiyotlarning katta qismi so‘nggi yillarda nashr etilgan bo‘lsa-da, O‘zbekiston va Markaziy Osiyo kontekstiga bevosita bag‘ishlangan ilmiy-nazariy manbalar soni cheklangan, bu esa milliy xususiyatlarni chuqurroq kontekstlashtirish imkoniyatini qisman toraytiradi. To‘rtinchidan, sun’iy intellekt

va ta’lim inklyuzivligiga bag‘ishlangan bo‘lim boshqa yo‘nalishlarga nisbatan tezroq eskiruvchi texnologik kontekstga tayanadi, shu sababli undagi xulosalar davriy yangilanishni talab qiladi.

Shu asosda kelgusi tadqiqotlar uchun bir qator aniq yo‘nalishlar taklif etiladi: birinchidan, taklif etilgan besh bosqichli transfer modelini bitta hududda yoki sohada — masalan, bitta viloyat mahallalarida yoki bitta ta’lim bosqichida pilot tarzda sinovdan o‘tkazish va uning natijalarini miqdoriy indikatorlar orqali baholash; ikkinchidan, ish beruvchilar, ta’lim xodimlari hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarning o‘zlari o‘rtasida so‘rovnoma va chuqurlashtirilgan intervyu asosida birlamchi ma’lumotlar to‘plash; uchinchidan, raqamli davlat xizmatlaridan foydalanish statistikasini nogironlik holati kesimida tahlil qilish orqali raqamli tafovutning miqdoriy o‘lchovini aniqlash; to‘rtinchidan, mahalla institutining inklyuziv siyosatni amalga oshirishdagi real salohiyatini institutsional-etnografik tadqiqotlar orqali chuqurroq o‘rganish. Ushbu yo‘nalishlar mazkur maqolada taklif etilgan kontseptual modelni empirik dalillar bilan boyitish va uning amaliy tatbiq etilishini ta’minlash imkonini beradi.

Xulosa

Inklyuziv jamiyatni shakllantirish alohida sektorlardagi siyosiy choralar yig‘indisi emas, balki ta’lim, bandlik, ijtimoiy himoya, raqamli xizmatlar va mahalliy boshqaruv institutlarini o‘zaro bog‘lovchi kompleks tizim sifatida qaralishi lozim. Taklif etilgan besh bosqichli adaptiv transfer modeli xalqaro tajribani “eng yaxshi modelni tanlash”dan “eng mos mexanizmni tanlash va moslashtirish”ga o‘tish imkonini beradi. O‘zbekiston uchun mahalla institutini xalqaro model o‘rniga qo‘yish emas, balki xalqaro mexanizmlarni mahalliy koordinatsiya arxitekturasiga tatbiq etish strategik ahamiyat kasb etadi. Kelgusida ushbu model asosida pilot loyihalarni amalga oshirish va uning natijalarini miqdoriy indikatorlar orqali baholash zarur.

Taklif etilgan adaptiv inklyuziya transferi besh omil — huquqiy moslik, institutsional tizim, boshqaruv, ijtimoiy-madaniy moslik va dastlabki dalillar orqali xalqaro mexanizmlarni saralashni taklif qilish imkonini berdi. Finlandiyadan erta qo‘llab-quvvatlash, Kanadadan jamiyatga asoslangan tabaqalashtirish, Yaponiyadan universal dizayn va oqilona moslashtirish, Germaniyadan idoralararo muvofiqlashtirish, Xitoydan esa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni inklyuzivlashtirish bilan bog‘lash mexanizmlari o‘rganilishi mumkin. Biroq ularning hech biri to‘liq ko‘chirilmasligi kerak.

Sun’iy intellekt ta’lim tizimida shaxsiylashtirilgan o‘qitish, adaptiv ta’lim, baholash, tezkor fikr-mulohaza, ta’lim ma’lumotlarini tahlil qilish va boshqaruv jarayonlarni avtomatlashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ayniqsa, yordamchi texnologiyalar orqali SI nogironligi bo‘lgan va boshqa qo‘shimcha ehtiyojlarga ega o‘quvchilarning ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Biroq SI ta’limda faqat texnologik innovatsiya sifatida emas, balki ijtimoiy va institutsional jarayon sifatida baholanishi kerak. Shaxsiy ma’lumotlarning himoyasi, algoritmik tarafkashlik, raqamli tengsizlik, akademik halollik va inson nazoratining saqlanishi uning mas’uliyatli qo‘llanilishining asosiy shartlaridir. Shu bois ta’limda SI texnologiyalarini joriy etishning maqsadi o‘qituvchini almashtirish emas, balki o‘qituvchi va o‘quvchining imkoniyatlarini kengaytiradigan, inklyuziv va inson uchun qulay ta’lim muhitini shakllantirishdan iborat bo‘lishi lozim.

O‘zbekistonda davlat ijtimoiy xizmatlari, inklyuziv ta’lim, inklyuziv bandlik va foydalanish uchun qulay raqamli xizmatlarni yagona monitoring tizimi bilan bog‘lashdan iborat. Shu ma’noda tadqiqotimiz inklyuziv muhitni “ilg‘or tajribaga taqlid qilish” emas, “dalillarga asoslangan moslashuvchan institutsional tuzilma” sifatida ko‘rishga asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Guidance for Generative AI in Education and Research. Published in 2023 by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization, 7, place de Fontenoy, 75352 Paris 07 SP, France© UNESCO 2023ISBN 978-92-3-100612-8 https://doi.org/10.54675/EWZM9535. https://unesdoc.unesco.org/
2. UNESCO. (2021). Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. Paris: UNESCO. https://unesdoc.unesco.org/ (Генеральная конференция Организации Объединенных Наций по вопросам образования, науки и культуры (ЮНЕСКО) в ходе своей 41-й сессии, проходившей в Париже с 9по 24 ноября 2021 года)
3. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M. Forcier, L. B. (2016). Intelligence Unleashed. An argument for AI in Education. London: Pearson. Copyright 2016. The contents of this paper and the opinions expressed herein are those of the Authors alone. ISBN: 9780992424886. https://edu.google.com/pdfs/Intelligence-Unleashed-Publication.pdf
4. Chen, L., Chen, P., Lin, Z. (2020). Artificial intelligence in education: A review. IEEE Access, 8, 75264–75278. https://doi.org/10.1109/ACCESS.2020.2988510
5. UNESCO. (2020). Inclusion and Education: All Means All. Global Education Monitoring Report 2020. Paris: UNESCO.
6. Hafizov H. “Sun’iy Intellekt Inqilobi: nogironligi bor shaxslar inklyuziyasi uchun olamshumul imkoniyatmi?” 18-iyul, 2024-yil. https://www.undp.org/uz/uzbekistan/

7. https://edtechconferences.london/
8. Ha, S., Kim, S. (2026). Digital accessibility research from 1997 to 2024: A triangulated review and conceptual framework. Telematics and Informatics, 106, 102394. https://doi.org/10.1016/j.tele.2026.102394
9. Jacob, U. S., Maguvhe, M. O. (2026). Advancing inclusive development through community-based rehabilitation: A systematic literature review. Frontiers in Rehabilitation Sciences, 7, 1824043. https://doi.org/10.3389/fresc.2026.1824043
10. Lindner, K.-T., Pirker, A., Avramidis, E., Schwab, S. (2026). Secondary school teachers’ attitudes towards inclusive education: A systematic review of recent results and research trends. European Journal of Special Needs Education. https://doi.org/10.1080/08856257.2026.2649541
11. Lindner, K.-T., Schwab, S., Emara, M., Avramidis, E. (2023). Do teachers favor the inclusion of all students? A systematic review of primary schoolteachers’ attitudes towards inclusive education. European Journal of Special Needs Education, 38(6), 766–787. https://doi.org/10.1080/08856257.2023.2172894
12. Lythreatis, S., Singh, S. K., El-Kassar, A.-N. (2022). The digital divide: A review and future research agenda. Technological Forecasting and Social Change, 175, 121359. https://doi.org/10.1016/j.techfore.2021.121359
13. Manzoor, M., Vimarlund, V. (2018). Digital technologies for social inclusion of individuals with disabilities. Health and Technology, 8, 377–390. https://doi.org/10.1007/s12553-018-0239-1
14. Mendoza, M., Heymann, J. (2024). Implementation of inclusive education: A systematic review of studies of inclusive education interventions in low- and lower-middle-income countries. International Journal of Disability, Development and Education, 71(3), 299–316. https://doi.org/10.1080/1034912X.2022.2095359
15. Mitra, S., Palmer, M., Kim, H., Mont, D., Groce, N. (2017). Extra costs of living with a disability: A review and agenda for research. Disability and Health Journal, 10(4), 475–484. https://doi.org/10.1016/j.dhjo.2017.04.007
16. Mitra, S., Posarac, A., Vick, B. (2013). Disability and poverty in developing countries: A multidimensional study. World Development, 41, 1–18. https://doi.org/10.1016/j.worlddev.2012.05.024
17. Russell, A., Scriney, A., Smyth, S. (2022). Educator attitudes towards the inclusion of students with autism spectrum disorders in mainstream education: A systematic review. Review Journal of Autism and Developmental Disorders. https://doi.org/10.1007/s40489-022-00303-z
18. Silver, H. (2019). Social Exclusion. Wiley European Encyclopedia of Sociology. https://doi.org/10.1002/9781118568446.eurs0486
19. Stone, D. (2004). Transfer agents and global networks in the “transnationalization” of policy. Journal of European Public Policy, 11(3), 545–566. https://doi.org/10.1080/1350176042000212455
20. Van Herwegen, J. (2026). Raising educational outcomes for students with special educational needs and disabilities: A systematic review and meta-analysis. Review of Education. https://doi.org/10.1002/rev3.70127
21. Van Mieghem, A., Verschueren, K., Petry, K., Struyf, E. (2020). An analysis of research on inclusive education: A systematic search and meta review. International Journal of Inclusive Education, 24(6), 675–689. https://doi.org/10.1080/13603116.2018.1482012
22. Wiesel, I., Bigby, C. (2014). Being recognised and becoming known: Encounters between people with and without intellectual disability in the public realm. Environment and Planning A, 46(7), 1758–1774. https://doi.org/10.1068/a46251
23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga davlat ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralarini taqdim etish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 26.12.2025 yildagi PF-258-son Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-7952180#-7957214
24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 1-iyundagi PF-82-son Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-6480342#-6482985
25. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining Ijtimoiy himoya davlat jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 28.12.2023 yildagi 687-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/-6720230#-6722528
26. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni ish bilan ta’minlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda kompleks yondashuvni targ’ib qilish borasida O‘zbekistondagi davlat tizimini tahlil qilish. BMTTD, O‘zbekiston Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Yevropa ijtimoiy ta’minot siyosati va tadqiqotlari markazi, Mualliflar: Anette Skoppetta va Eszter Zolyomi, 2024

yil. 7-30-betlar. https://www.undp.org/uz/uzbekistan